

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

SHARIPOV JAVOHIR HASAN O‘G‘LI

**“DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIDA QO‘SHILGAN
QIYMAT SOLIG‘INING TUTGAN O‘RNI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedraasi mudiri
i.f.d., professor Jo‘raev A.S. _____

“ _____ ” _____ 2014 y.

Bitiruvchi: 5340800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Sharipov J.H. _____

Ilmiy rahbar: k.o‘q. Qiyosov Sh. _____

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA		Betlar
KIRISH.....		3-6
DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDA		
I BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING		
IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....		7-15
1.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi va rivojlanish tarixi		7-15
1.2. Davlat byudjet daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'ining ahamiyati.....		16-19
DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDA		
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI		
II BOB. HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBINING		
AMALDAGI HOLATI TAHLILI (TOSHKENT		
SHAHAR YUNUSOBOD TUMANI MISOLIDA)....		20-30
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti va soliq bazasini aniqlash tartibi tahlili.....		20-30
2.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi va imtiyozlar tahlili.....		30-42
2.3. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash tartibi tahlili.....		42-47
DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDA		
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI		
III BOB. UNDIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA		
ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....		48-54
3.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish masalalari.....		48-54
3.2. Davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ini undirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish masalalari.....		54-59
XULOSA		60-63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....		64-71
ILOVALAR.....		72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda soliq tizimi tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i umumdavlat soliqlari sifatida davlat byudjetini shakllantiruvchi manba bo'lib, ushbu soliq turidan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin. Davlat byudjetini daromadlar bilan ta'minlashda egri soliqlardan foydalanish muhim o'rin tutganligi, bunda qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliqni hozirgi sharoitda boshqa soliqlar singari o'zining tarixiy rivojlanish davrlariga ega ekanligini iqtisodiy olimlar va amaliyotchilar tomonidan qayd etilgan.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda yangi soliq tizimi va uni amal qilish mexanizmi muhim asoslar bilan ishlab chiqilishiga qaramasdan bu sohada xalq qilinishi zarur bo'lgan muammolar ko'p. Soliqlar va soliqqa tortish mexanizmi muammolarining nazariy jihatdan o'rganib chiqish va amaliyotda ulardan samarali foydalanish jarayonidagi ijobiy siljishlar ro'y bermoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'ini nazariy jihatdan etarli darajada o'rganish, shuningdek ushbu soliqni byudjet daromadlarini shakllantirish va xo'jalik faoliyatiga ta'siri nuhtai nazaridan qaralganda yaqqol ko'rish mumkin. Bu borada davlatimiz rahbari I.Karimovning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir: Biz bugun 2013-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir. 2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga

qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi¹.

Hozirgi kunda yuqorida keltirilgan muammolar soliq tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'ini undirish bilan bog'liq muammolarda ham yaqqol ko'rinmoqda.

Respublikamiz soliq tizimi tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i umumdavlat soliqlari sifatida davlat byudjetini shakllantiruvchi asosiy manbalardan biri bo'lib, ushbu soliq turidan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ining zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solib turish va uni boshqarish vazifasi bajarayotgan paytda namoyon bo'ladi. Shu davrda davlat o'z funktsiyasini bajarishi uchun albatta moliyaviy manbaga ega bo'lishi kerak. Ana shunday manbalarni byudjetga jalb qilishning asosiy, balki, kelajakdagi yagona yo'li soliqlardir.

Mazkur soliq bo'yicha berilgan imtiyozlarni qo'llash va ulardan foydalanish orqali ko'zlangan natijalarga erishib bo'lmayotganligi hamda aksariyat holllarda bu imtiyozlar xo'jalik sub'ektlari iqtisodiga boqimandalik holatlarini yuzaga chiqarmoqda.

Bunaqangi vaziyatlarning mavjud ekanligi shu sohada ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurligini taqozo etadi. Bu esa bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetiga undirish bitiruv malakaviy ishi ob'ekti hisoblanadi.

Davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ini undirishdagi mavjud muammolar bitiruv malakaviy ishi predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ining tutgan o'rnini tahlil qilishdan iborat.

¹ I.A.Karimov. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. //Xalq so'zi. 2014 yil 19 yanvar.

Ushbu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- Davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati va uning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;
- Byudjet daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'ining ahamiyatini tahlil qilish;
- Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti va soliq bazasini aniqlash tartibini o'rganish;
- Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi va imtiyozlarni tahlil qilish;
- Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash tartibini tahlil qilish;
- Qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish masalalarini o'rganish;
- Davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ini undirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ining tutgan o'rni, soliq siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqishda va ustuvor yo'nalishlarini belgilashda, soliqlar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ahamiyati hamda maqsadi va vazifalari asoslab berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati va uning nazariy-uslubiy asoslari nazariy jihatdan yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari, soliq ob'ekti, soliq solinadigan bazani belgilash, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va imtiyozlarni guruhlash tartibi, qo'shilgan qiymat solig'ini

hisoblash va byudjetga to'lash tartibi kabi masalalar amaliy materiallar asosida tahlil qilingan.


Uchinchi bobda qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish masalalari va davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ining tutgan o'rni yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishida xulosalar umumlashtirilgan va takomillashtirish yuzasidan takliflar tizimi keltirilgan.

I BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

1.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi va rivojlanish tarixi

Soliqlarning jamiyat moliya tizimida tutgan o'rnini yoritish hamda iqtisodiy mazmunini ochib berishda ularni undirish nuqtai nazaridan tasniflanishini bilish muhimdir. Quyida keltirilayotgan chizmada soliqlarni undirish bo'yicha tasniflanishini ko'rish mumkin (1-chizmaga qarang):



1-chizma. Soliqlarni undirish bo'yicha tasniflanishi².

Chizmadan ko'rinib turibdiki, soliqlarni asosan ikki yirik guruhga ajratish mumkin: to'g'ri va egri. Bitiruv malakaviy ishining ob'ektidan kelib chiqib, egri soliqlar xususida to'xtalamiz. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan o'zining niqoblanganligi bilan farqlanadi. Ushbu soliqlar sotilayotgan tovar bahosiga ustama sifatida belgilanadi va buning natijasida haqiqiy to'lovchining daromadi yoki mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Qonun tovar ishlab chiqaruvchi va sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonaga tushum hisobidan soliqni byudjetga

² Пушкарева В. История финансовой мысли и политики налогов. -М.: "Финансы и статистика". 2002. стр. 44

to'lashdek yuridik majburiyatni yuklaydi. Haqiqatda esa, soliq yuki ushbu tovarlarni (xizmatlarni) egri soliq summasiga oshirilgan narxda sotib oluvchi yoki oxirgi iste'molchi zimmasiga yuklatiladi.

Egri soliq hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan oraliq tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir³.

Mazkur soliq birincha marta 1954 yilda frantsuz iqtisodchisi M.Lore⁴ tomonidan taklif qilingan bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pgina davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Masalan, Sharqiy Evropa mamlakatlari (Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Frantsiya, Shveytsariya)da 60 yillarning oxirida, (Belgiya, Buyukbritaniya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiyada) 70-yillarning boshlarida qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan va hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 35 dan ortiq davlatlarda joriy etilgan va undirilib kelinmoqda. Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga kirgan barcha davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonuni asosida joriy etildi⁵.

Qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda joriy etilgan bo'lib, Avstraliya va AQSh bundan mustasnodir. Qo'shilgan qiymat solig'ini chiqarib tashlash usulidan foydalaniladigan Yaponiyadan tashqari mazkur mamlakatlarning hammasi qo'shilgan qiymat solig'i kredit hisob-kitobi usulidan foydalanadi. Bu usul korxona - shaxslardan ta'minotning barcha bug'inlari bo'yicha soliqqa tortiladigan xom ashyo va materiallarning barcha turlari uchun tegishli stavka bo'yicha

³ Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. -T.: "Fan". 2004. 111-112 betlar.

⁴ Миляков, Н. Налоги налогообложение. -М.: Инфра-М. 2005. стр. 69

⁵ Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. //O'quv qo'llanma. -T.: 2003. 80-bet

qo'shilgan qiymat solig'i hisobini yuritishni talab qiladi⁶. Soliq to'lovchilar xom ashyo va materiallar etkazib beruvchilardan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i miqdori kreditdan chiqarib tashlanishiga xaqlidir. Buning tasdig'i sifatida bunday xom ashyo va materiallarga ma'lum talablarga mos keladigan soliq hisob-kitobi yoziladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning deyarli hammasida yillik aylanmaning eng yuqori miqdori (soliq chegarasi) belgilab qo'yilgan va shu tufayli ular qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ro'yxatdan o'tmaslikka xaqlidir.

Qo'shilgan qiymat solig'i tizimi ikki bosqichda joriy etildi. Avvalo Shimoliy Evropa mamlakatlarining ko'pchiligida va Evropa Ittifoqiga eng birinchi bo'lib kirgan mamlakatlarda qo'llanilgan, so'ngra 1986 yilda iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida umumiy soliq isloxotlarining amalga oshirilishi qo'shilgan qiymat solig'ining Evropadan tashqarida ham tarqalishiga olib keldi. Natijada iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan 25 mamlakatdan 23 tasida iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti juda qisqa muddatda joriy etildiki, bu o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha ta'sir va sabablarning in'ikosi edi⁷. Shunday sabablardan biri, masalan, qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish va iste'molni kamroq darajada o'zgartirib, narx-navoga ancha holis ta'sir o'tkazishidir. Bundan tashqari, u mahsulot etkazib beruvchilar orqali kuzatib turish imkoniyati bo'lgani uchun aldash imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu esa qo'shilgan qiymat solig'ining ancha yuqori stavkalarini belgilashga, binobarin iste'molga umumlashtirilgan soliqlarning boshqa turlariga nisbatan ko'proq daromad olishga imkon beradi. Qo'shilgan qiymat solig'ining faktura usulidan foydalanib, ma'lum tovarlardan yig'ilgan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini aniq bilish imkonini berishi ham juda muhimdir. Bu usul bojxona orqali tartibga solishga yanada aniqrok tus beradi. Ayni shu maqsadda Evropa Ittifoqiga kirish istagini bildirgan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etish zarurdir.

⁶ Toshmatov Sh., Komilov M. Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2004. 19-bet.

⁷ Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003. стр. 46

Ko'pgina mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i davlat soliq daromadlarining 12 foizdan 30 foizgacha bo'lgan daromad qismini qoplaydi, ya'ni yalpi milliy mahsulotning o'rtacha 5-10 foizini tashkil qiladi⁸.

O'zbekistonda 1992 yildan beri qo'llanilib kelinayotgan qo'shilgan qiymat solig'i (aktsiz solig'i bilan birgalikda) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar – savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o'rnini to'liq almashtirdi. Ammo, qo'shilgan qiymat solig'i o'zining o'zni bo'yicha byudjetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta'siri, narxlar proporsiyasini aniqlashda ulardan o'tib ketdi. Qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanila boshlangan vaqtdan hozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati byudjetining asosiy manbalaridan biriga aylandi.

O'tgan davrlar ichida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992 yilda amal qilgan 30 foizdan 1997 yilga kelib 18 foizgacha tushirildi va 1998 yildan boshlab 20 foiz qilib belgilanib⁹, ushbu stavka bugungi kungacha saqlanib qolindi. Hozirgi vaqtda amaliyotda “nollik” stavka ham qo'llanilmokda.

Soliqning ushbu stavkasi miqdorining saqlanib qolinishi sabab bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ushbu stavka deyarli barcha mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida amal qilib keladi va bu davlatlararo savdoda amalga oshirishda ancha samarali hisoblanadi.

- soliqning ushbu stavkasida davlat byudjetining daromad qismi 30 foizligicha saqlanib qoladi va bu bozor iqtisodiga mo'ljallangan davlatlardagi ushbu manbadan keladigan tushumlar hajmi bilan mos keladi.

- soliqning bu stavkasi yiliga 1-2 foizdan kamayib borayotgan foyda solig'i stavkasining pasayishi natijasida olinmay qolinayotgan byudjet daromadi o'rnini qoplash imkoniyatini beradi¹⁰.

Qo'shilgan qiymat solig'i - ishlab chiqarish va taqsimlashdan tortib iste'molchiga, sotishgacha bo'lgan jarayonda har bir tsikldan olinadigan bilvosita

⁸ Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002. стр. 46.

⁹ Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. //O'quv qo'llanma. -T.: “Iqtisod-moliya”. 2005. 38-bet.

¹⁰ Toshmatov Sh., Komilov M. Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2004. 24-bet.

ko'p pog'anali soliqdir. Uning ob'ekti qo'shilgan qiymat, ya'ni mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar bajaruvchi tomonidan yangi buyum yoki xizmatni bajarish uchun sotib olingan xom ashyo, materiallar yoki mahsulotlar qiymatiga qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Ushbu soliq mahsulot narxining barcha unsurlarini cheklaydi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga undaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblar jarayonida davlat sanoat va savdo sarmoyasi aylanishi sur'atlari haqida ma'lumot oladi, bu esa makroiqtisodiy tartibga solinishini engillashtiradi¹¹. Bundan tashqari, davlat tovarning aholi - soliqning mazkur turining yagona va oxirgi to'lovchisiga sotilishiga qadar daromad olish imkoniga ega bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga asoslangan soliq to'lash tizimi soliqlarni qismlarga ajratib olish imkonini beradi, chunki firmaning barcha sotuvlaridan soliq olinadi, biroq oraliqdagi haridlar uchun to'langan soliqlar keyinchalik umumiy summadan qoplanadi. "Soliq krediti" sifatida tanish bo'lgan bu usul soliq tizimiga o'zini-o'zi tartibga solish imkonini beradi, bu esa soliqlar olish tartibini yaxshilaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy afzalligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bosqichida to'langan soliq miqdorini hisoblash mumkin. Bu misol uchun, eksport uchun soliq chegirmalarini hisoblash va eksport subsidiyalari berilishida buzilishlarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari bunday ko'p bosqichli soliqlardan foydalanish yagona firma tuzilmasi yoki korxonalar uyushmasi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarishda soliq summasini kamaytiradi va shu tariqa firmalarning vertikal integratsiyasiga turtki bo'ladi.

Jahon amaliyoti qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning deyarli bir xil tizimini nazarda tutadi. To'lovchi xaridordan sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq summasi va etkazib beruvchi tomonidan moddiy resurslar, yoqilg'i, ishlar uchun to'langan va ular qiymati ishlab chiqarish va aylanma xarajatlarga kiritilgan soliq summasi orasidagi farqni to'laydi.

¹¹ Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. //O'quv qo'llanma. -T.: 2003. 82-bet.

To'lanishi kerak bo'lgan soliq manfiy bo'lib chiqsa, ya'ni bu soliq ko'payib ketsa, qoldiq bo'lajak to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki rivojlangan mamlakatlarda qabul qilinganidek, byudjetdan boshqa summalar hisobiga qoplanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i respublikada joriy qilingan soliqqa tortishning eng murakkab, ko'p qirrali va nisbatan kam takomillashgan qismidir. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarni sotish ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatilganda aksariyat yangi xosil qilingan qiymat (foyda, amortizatsiya ajratmasi, mehnat haqi jamg'armasi)dan kelib chiqib byudjet daromadiga o'tkazishning bir shaklidir¹².

Bizning fikrmizcha qo'shilgan qiymat solig'i soliq voqeiligini, ya'ni soliqchi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalashi kerak. Shunday ekan ularni qat'iy va takrorlanuvchi voqeilik, ya'ni iqtisodiy voqealik deb tushunishimiz kerak.

Qo'shilgan qiymat solig'i egri soliq hisoblanadi. Bu esa egri soliq sifatida mahsulotlar narxining keskin oshishiga sabab bo'ladi. Mahsulotlar narxining keskin oshishi, iste'molchilar xarid qobiliyatini pasaytiradi. Chunki egri soliqlarning haqiqiy to'lovchilari oxirgi iste'molchilar hisoblanadi. Respublikamizda egri soliqlar sifatida qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona bojlari va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ining zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solib turish va uni boshqarish vazifasi bajarayotgan paytda namoyon bo'ladi. Shu davrda davlat o'z funktsiyasini bajarishi uchun albatta moliyaviy manbaga ega bo'lishi kerak¹³. Ana shunday manbalarni byudjetga jalb qilishning asosiy, balki, kelajakdagi yagona yo'li soliqlardir.

Qo'shilgan qiymat solig'iga davrimizni ko'pchilik iqtisodchi olimlar turlicha ta'rif berib kelmoqdalar, lekin shu ta'riflarni barchasi mazmuni va mohiyati jihatidan bir xil hisoblanadi.

Masalan: qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish yoki muomalaning har bir bosqichida qo'shilgan qiymat qismidan undiriladi. Qo'shilgan qiymatga ish haqi,

¹² Toshmatov Sh., Komilov M. Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2004. 36-bet

¹³ Финансово-кредитный энциклопедический словарь. -М.: "Финансы и статистика". 2002. стр. 125

amortizatsiya, kredit uchun foiz, elektr energiyaga, transportga, reklamaga ketgan sarf xarajatlar kiradi. Bittagina tovar boshqatdan sotilayotgan bo'lsa, soliq xarid va sotish narxlari o'rtasidagi ayirmani hosil qiluvchi qo'shilgan qiymatdan hisoblanadi. So'ngra bu soliq tovarning uzil-kesil narxiga qo'shiladi, ya'ni bunda ishlab chiqaruvchini emas, balki iste'molchining daromadi soliq solish ob'ekti bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarishning har bir bosqichida yaratilayotgan qiymatga (ya'ni, tovar, ish va xizmatlar) qiymatiga, davlat o'z hukmronligidan foydalanib, o'zining "haqini" qo'yadi¹⁴ va mahsulot va ish-xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i hisobiga sun'iy oshirilishi natijasida asosan aholi daromadlarining bir qismini o'zining daromadiga korxona va tashkilotlar vositachiligida undirib olinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy vazifasi va ahamiyatli tomoni byudjet daromadlarini shakllantirishdir, ya'ni fiskal funktsiyani bajarishga xizmat qiladi. Bu soliقدan iqtisodiy va ijtimoiy funktsiya sifatida foydalanish imkoniyatlari chegaralangan¹⁵. Umuman egri soliqlar iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud mamlakatlarda davlat xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash maqsadida joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga binoan, hisobot davri (oyi) uchun realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisoblab chiqarilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala xarajatlari (masalan, materiallar, xom - ashyo, butlovchi buyumlar, yoqilg'ini etkazib bergan ta'minotchilarga to'langan haq)ga qo'shiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi.

Bu umumiy tartib mazkur soliqning qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq sifatidagi mohiyatini ochib beradi. Bu o'rinda korxona bir vaqtning o'zida

¹⁴ Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. –T.: “Sharq”. 2009. 210-bet

¹⁵ Макарьева В. Оптимизация налогообложения. -М.: ООО “Горячая линия бухгалтера”. 2005. стр. 56

ta'minotchiga soliq to'lovchi sifatida ham, tovarlarni sotib oluvchi, ishlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilardan soliq sifatida ham maydonga chiqadi.

Bunday ahvolda tovarlar (ishlar, xizmatlar) etishmovchiligi yoxud ularga talab oshgan sharoitlarda, qo'shilgan qiymat solig'i korxonaning moliyaviy natijasi (foydasi)ga nisbatan haqiqatdan neytral soliqqa ham, mulkchilik shakllaridan va xo'jaliklarning tarmog'idan qat'iy nazar, barcha korxonalar va birlashmalar tomonidan to'lanadigan universal soliqqa aylanadi.

Bozor munosabatlari rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda korxona bir vaqtning o'zida ham soliq to'lovchi (ta'minotchiga), ham soliq undiruvchi (iste'molchiga) bo'ladi. Byudjet oldida esa, soliq yig'uvchilik vazifasini bajarib, olingan va to'langan soliq summalari o'rtasidagi farqni byudjetga o'tkazadi. Amaldagi soliq qonunlariga ko'ra, bunday ahvol asosan saqlanmoqda¹⁶. Biroq, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ayrim korxonalarga soliq imtiyozlari berilganligi sababli ular o'rtasidagi aloqa uzilib qolmoqda. Ta'minotchi soliqdan ozod etilganligi natijasida xaridor byudjetga soliqni katta miqdorda to'lashga majbur bo'lmoqda.

Masalan, korxona yakka tartibda imorat quruvchilar va uy joy binokorlik shirkatlariga qurilish materiallari (g'isht, tsement va hakoza)ni sotadi. Bu ashyolar qo'shilgan qiymat solig'i solinishidan ozod qilingan, lekin ularni ishlab chiqarish uchun qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib olingan asosiy fondlar, materiallar, elektr energiyasi, gaz, suvdan foydalanilgan. Bu yerda soliq summasini to'laligicha ishlab chiqarish sarf - xarajatlariga kiritiladi, oqibatida tayyor mahsulotning narxi ko'tarilib ketadi. Ta'minotchi etkazib beruvchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga moliya resurslari chiqariladi (immoblizatsiya qilinadi). Chunki, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar borligi uchun ularni hisobga olish imkoniyati yo'q. Bunday ahvol soliqning qiymatga qo'shiluvchi neytrallik mohiyatiga to'g'ri kelmaydi. Amaliyotda soliqni hisoblab chiqarishda, shuningdek, chalkashlik paydo qiladi, uni hisoblashni murakkablashtiradi. Shu bois, bizning fikrimizcha, ushbu soliq yuzasidan imtiyozlarni qabul qilish

¹⁶ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 125.

maqsadga muvofiq emas. Eksport tovarlariga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarga o'zini oqlaydi. Negaki, bunda korxona realizatsiya qilinadigan tovarlar bo'yicha ham, ta'minotchilardan sotib olinadigan tovarlar bo'yicha ham soliqlardan ozod etiladi. Bunday imtiyoz qo'shilgan qiymat solig'ini neytral soliqqa aylantiradi. Qolgan hollarda esa, uni neytral deb atash mumkin emas¹⁷.

Ma'lumki, qo'shilgan qiymat solig'ining huquqiy asoslarini 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq kodeksi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari tashkil etadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi barcha korxona va tashkilotlar asosiy vositalar uchun ta'minotchiga to'lagan soliq summasini asosiy fondlar qiymatiga kiritadilar. Binobarin, mazkur korxonalarda xaridor korxonalarining moliyaviy resurslari immoblizatsiya qilinadi yoki sun'iy ravishda asosiy fondlarning qiymatlariga kiritiladi, bu esa pirovard natijada tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatining oshishiga olib keladi. Bu mazkur korxonaning moliyaviy ahvoliga (daromadlar ola olmasligi ma'nosida)gina emas, ayni paytda byudjet (tovarlar qiymatining oshishi oqibatida tovarlar sotilishi sustlashishi tufayli daromadlar olinganligi ma'nosida) ham salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ta'kidlaganidek, asosiy vositalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini uni byudjetga to'lash chog'ida, asosiy fondlarning qiymatiga to'laligicha kiritmasdan hisoblanadi.

¹⁷ Toshmatov Sh., Komilov M. Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2004. 48-bet.

1.2. Davlat byudjet daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'ining ahamiyati

Davlat byudjeti pul resurslarining markazlashtirilgan fondi bo'lib, mamlakat hukumati davlat apparati, qurolli kuchlarni tutib turish, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarish uchun uni tasarruf etadi. Hozirgi shart-sharoitda byudjet davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, xo'jalik kon'yunkturasiga ta'sir ko'rsatish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishning qudratli vositasi hamdir.

Davlat byudjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqiyosida markazlashgan va davlat ishtirokida to'plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi. Umuman byudjet inglizcha so'z bo'lib, davlat, korxona, muassasasi va ayrim shaxslarning ma'lum muddatga olinadigan belgilab qo'yilgan kirim-chiqim, ya'ni daromad va xarajatlari majmuini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti asosan soliqlar yordamida to'planadigan hamda davlat tomonidan uning funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun ishlatiladigan pul mablag'larining markazlashtirilgan fondidir, u qonun kuchiga ega, Respublika Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi¹⁸.

Davlatning iqtisodiy siyosatini hayotga tatbiq etishning asosiy vositalaridan biri bo'lgan byudjet tizimi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti faoliyat ko'rsatilishining tashkiliy shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining tuzilishi – “O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi to'g'risida”gi qonuniga muvofiq respublikaning mustaqil davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi. Tarkibiga respublika byudjetini, Qoraqolpag'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni olib, tuziladigan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish davlat rejasiga muvofiq ravishda daromad va xarajatlarni bo'yicha tuziladi.

Bevosita soliqlar salmog'ini kamaytirish hisobiga bilvosita soliqlar ulushini oshirish, soliq yukini ishlab chiqaruvchilar zimmasidan iste'molchilar zimmasiga

¹⁸ Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005. 78-bet.

o'tkazish bevosita korxonalar hamda fuqarolarning moliya-xo'jalik faoliyatiga, ya'ni ularning daromadlari hajmiga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Bevosita soliqlarning kamayishi bilan ishlab chiqarishning rivojlanishi rag'batlantiriladi, tegishlicha soliqqa tortish bazasi kengayib, byudjetga tushumlar ortadi. Bevosita soliqlar stavkalarini kamaytirish va bilvosita soliqlarga tortish bazasini kengaytirish orqali bunga erishish mumkin. Bundan tashqari, soliq stavkalarini yanada ko'proq pasaytirish yo'li bilan ayrim yo'nalishlar eksport, xorijiy investitsiyalar va boshqalar rag'batlantiriladi.

So'nggi yillardagi soliq siyosatining tahlili davlat byudjetining daromadlari tarkibida egri soliqlar ulushining ancha kamayayotganini ko'rsatmoqda.

1-jadval

2012-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari¹⁹

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil (reja)	
	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	20614100,0	100	25104900,0	100	30160800,0	100
Egri soliqlar	11187800,0	54,3	13039400,0	51,9	15618200,0	51,8
Qo'shilgan qiymat solig'i	6784500,0	33,0	7737800,0	30,8	9123100,0	30,2

Jadval ma'lumotlari ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'i davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i 2012 yilda 6784500,0 mln. so'mni ya'ni 33,0 foizni, 2013 yilda 7737800,0 mln. so'mni ya'ni 30,8 foizni, 2014 yilda esa, 9123100,0 mln. so'mni ya'ni 30,2 foizni tushishi rejalashtirilgan. Egri soliqlardagi salmog'i esa, 2012 yilda 11187800,0 mln. so'm ya'ni 54,3 foizni, 2013 yilda 13039400,0 mln. so'm ya'ni 51,9 foizni, 2014 yilda esa, 15618200,0 mln. so'mni ya'ni 51,8 foizni tushishi rejalashtirilgan. Xulosa qiladigan bo'lsak, davlat byudjetidagi salmog'i va egri soliqlardagi salmog'i kamaymoqda.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.

Biz yuqorida respublikamiz davlat byudjetida qo'shilgan qiymat solig'ining salmog'ini tahlil qildik. Endi, qo'shilgan qiymat solig'ini Toshkent shahar Yunusobod tumani byudjetini shakllantirishdagi rolini tahlil qilsak. Quyidagi jadvalda Yunusobod tuman byudjetida qo'shilgan qiymat solig'ining egri soliqlardan tushumlar salmog'idagi o'rnining tahlili berilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Yunusobod tuman byudjetida qo'shilgan qiymat solig'ining egri soliqlar tarkibidagi o'rni²⁰

Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
	jami n-n, %da	jami n-n, %da	jami n-n, %da
Egri soliqlar	100,0	100	100
Qo'shilgan qiymat solig'i	80,6	81,7	82,1

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'ining jami egri soliqlardagi ulushi o'sish tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2011 yilda jami egri soliqlar daromadlaridagi ulushida 80,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 81,7 foizni tashkil etgan, 2013 yilda esa 82,1 foizni tashkil etgan holda 2011 yilga nisbatan 1,5 punktga o'sgan.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash mexanizmi ichki va ayniqsa tashqi soliqqa tortishda - mo'ljallangan joyiga qarab xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari, hisobvaraq fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan nazoratga avtomatik tus berdi. Biroq bunda asosiy muammo - qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilish muammosi hal etilmay qolmoqda. Bundan soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri – adolatlilik tamoyili buzilmoqda, chunki ushbu soliqni to'lamaydiganlardan mahsulot sotib oluvchi, mazkur soliq to'lovchilarining soliq yuki ortmoqda.

²⁰ Yunusobod tumani DSI hisobot ma'lumotlari.

Shu tariqa qo'shilgan qiymat solig'ini birxillashtirish va soddalashtirish masalasida kelgusida unga doir barcha imtiyoz va istisnolarni bekor qilish asosiy yo'nalish tusiga ega bo'ladi. Mazkur soliq davlatga juda qulay va "arzon" tushadi. Chunki korxona va tashkilotlar foyda olishi yoki olmasligidan qat'iy nazar tovarlar sotilishi bilan byudjetga kelib tushadi, ya'ni byudjet daromadlarining uzluksizligini ta'minlaydi.

1998 yildan boshlab mahsulot (ish, xizmatlar) jo'natilishi tovarlarning realizatsiya qilingan deb hisoblanadi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida korxonalar va aholi daromadlarining juda past darajada bo'lishi natijasida, davlat ko'proq egri soliqlarni oshirishga majbur bo'lmoqda. Lekin davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun yuqori darajaga ko'tarishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin²¹. Uning ma'lum darajada iqtisodiy asoslangan, korxonalar moliyaviy xolatini va aholi turmushi moddiy darajasini normal xolatda ta'minlaydigan chegarasi bo'lishi lozim. Jismoniy shaxslar daromad solig'i undirilishda (to'g'ri soliq) soliq to'lovchining daromadi darajasi, to'lov qobiliyati va boshqa e'tiborga olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'ida esa bunday xolatlar e'tiborga olinmaydi. Tovarlarni ehtiyojini qondirish uchun sotib olgan aholi bu soliqni to'layveradi.

²¹ Sh.Toshmatov. Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2004. 28-bet.

II BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (TOSHKENT SHAHAR YUNUSOBOD TUMANI MISOLIDA)

2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq ob'ekti va soliq bazasini aniqlash tartibi tahlili

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 197-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;

2) Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs;

Quyida keltirilayotgan jadvalda Yunusobod tumanida ro'yxatdan o'tgan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari to'g'risida ma'lumot berilgan (3-jadvalga qarang).

**Yunusobod tumani bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari to'g'risida
ma'lumot²²**

Solig to'lovchilar	01.01.2012 yil holatiga ko'ra		01.01.2013 yil holatiga ko'ra		01.01.2014 yil holatiga ko'ra	
	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda
Jami ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar	7204	100	7098	100	7184	100
Shundan, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar	1488	20,6	1509	21,2	1673	23,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari nobarqaror tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2011 yilda jami ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar 7204 tani tashkil etgan bo'lsa shundan 1488 tasi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar yoki 20,6 foizni, 2012 yilda jami ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar 7098 tani tashkil etgan bo'lsa shundan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar 1509 tani tashkil etgan yoki 21,2 foizni, 2013 yilda esa jami ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar 7184 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 381 tasi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari yoki 23,3 foizni tashkil etgan.

Solig kodeksiga muvofiq, quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar (ushbu tizimga mansub korxonalar ixtiyoriy ravishda to'lovchilar bo'lishi mumkin).

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona

²² Yunusobod tumani DSI hisobot ma'lumotlari.

solig to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Yunusobod tumanida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tgan yagona soliq to'lovi to'lovchilari to'g'risida ma'lumot berilgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Yunusobod tumani bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan yagona soliq to'lovi to'lovchilari to'g'risida ma'lumot²³

Soliq to'lovchilar	01.01.2012 yil holatiga ko'ra		01.01.2013 yil holatiga ko'ra		01.01.2014 yil holatiga ko'ra	
	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda
Yagona soliq to'lovi to'lovchilari, jami	4011	100	4085	100	4153	100
Shundan, qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar	894	22,3	1028	25,1	1123	27,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tayotgan soliq to'lovchilar yillar bo'yicha o'sish tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2011 yilda jami yagona soliq to'lovi to'lovchilari 4011 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 894 tasi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari hisoblanadi yoki 22,3 foizni, 2012 yilda jami yagona soliq to'lovi to'lovchilari 4085 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 1028 tasi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari yoki 25,1 foizni, 2013 yilda esa jami yagona soliq to'lovi to'lovchilari 4153 tani tashkil etgan bo'lsa shundan 1123 tasi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari yoki 27,0 foizni tashkil etgan holda 2011 yilga nisbatan 4,7 punktga ko'p demakdir.

Soliq kodeksining 198-moddasiga muvofiq soliq solish ob'ekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- soliq solinadigan oborot;
- soliq solinadigan import.

Soliq kodeksining 199-moddasiga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni)

²³ Yunusobod tumani DSI hisobot ma'lumotlari.

realizatsiya qilish oboroti deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan:

- tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish);

- ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa;

- mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish);

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish);

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisga (ishtirokchiga) dividendlar to'lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish);

- garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yuvchi tomonidan garov narsasini berish;

- zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, agar tarkibiy bo'linmalar soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lsa, mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

4) to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish;

5) mol-mulkni operativ ijaraga berish;

6) intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

7) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda soliq kodeksning 147-moddasiga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

Quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'lmaydi:

- soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan, uning o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

- bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo'linmalar soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmasa, mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;

- soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

- qaytariladigan tarani jo'natish;

- yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisi) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqib ketganda), shu jumladan tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqib ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo'yicha sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkida bo'lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;

- asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish ob'ektlarini bepul asosda berish;

- banklar va sug'urta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o'z filiallariga berish;

- oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;

- tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;

- ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

- ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

➤ ob'ekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplash;

➤ tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir, bundan quyidagilar mustasno:

- qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborot;
- realizatsiya qilingan joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lmagan oborot.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidenti uchun bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar mazkur ishlarni, xizmatlarni oluvchining soliq solinadigan oborotiga belgilangan tartibda kiritiladi.

Soliq solinadigan baza, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to'lovchiga o'z ehtiyojlari uchun tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek ob'ektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda

hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aktsiz solig'ining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi, soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda esa, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan bazadir. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan, moliyaviy ijara ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida aktiv sifatida e'tirof etiladigan summa tarzida belgilanadi.

Qurilishi tugallanmagan ob'ekt realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan,

qurilishi tugallanmagan ob'ektni realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq solinmaydigan oborotlar hisoblanuvchi chiptalar, abonementlar, yo'llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlar olishga huquq beruvchi boshqa hujjatlar mazkur xizmatlarni ko'rsatmaydigan yuridik shaxslar tomonidan o'z xodimlari va ularning oila a'zolari uchun realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish bahosi va ularni olish bahosi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish nazarda tutilmagan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda (mazkur mol-mulk qo'shilgan qiymat solig'i bilan olinganligi yoki olinmaganligidan qat'i nazar), soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, uni realizatsiya qilish (chiqib ketish) qiymati bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq

solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan komitent yoki topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar bo'yicha garovga qo'yuvchining soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Keyinchalik realizatsiya qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan davlat rezervidan olingan, narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi belgilangan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza realizatsiya qilish narxi va davlat rezervidan olingan narx o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda

transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq kiritilmagan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to'g'risidagi bojxona qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'ining, bojxona bojlarining summolari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan taqdim etilgan ishlar, xizmatlar, agar ularning realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa ularga qo'shilgan qiymat solig'i solinishi kerak bo'lsa, ishlarni, xizmatlarni oluvchi O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchisining soliq solinadigan oborotidir.

Ishlar, xizmatlarni oluvchida soliq solinadigan baza O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad bo'yicha to'lov manbaida ushlab qolinishi lozim bo'lgan soliq summasi chegirib tashlanmagan holda belgilanadi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi belgilangan stavka va soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Olingan ishlar, xizmatlar uchun haq to'lash chet el valyutasida amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan oborot bu oborot amalga oshirilgan sanadagi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjati soliq summasini hisobga olish huquqini beradi.

2.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi va imtiyozlar tahlili

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992 yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o'zgartirildi. Jumladan, 1996 yilda 17 foizni, 1997 yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999 yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo'llanildi. 1999 yildan hozirgi kungacha respublikamizda 20 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda.

Quyidagilar esa nol darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladi:

- Tovarlarini chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga;
- Chet el tarafi o'zarolik printsiplig'a amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga);
- Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarini qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa;

- Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga;

- Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo'linmalari tomonidan olinadigan ana shunday xizmatlarga.

Soliqdan beriladigan imtiyozlar soliq kodeksining 208-moddasida berilgan bo'lib, mazkur imtiyozlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti;

- Soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar;

- Soliqdan ozod qilinadigan import;

- Soliqdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari.

Qo'shilgan qiymat solig'idan, quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

- 1) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig'im yoki boshqa to'lovlar undiriladigan xizmatlar;

- 2) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

- 3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

- 4) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;

- 5) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun

mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;

6) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

7) pochta markalari (kollektsiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

8) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;

9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;

10) shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari. Shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo'lovchilar tashish bo'yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo'nalishlar bo'yicha qatnov jadvaliga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu bandning qoidalari yuridik va jismoniy shaxslarning buyurtmalariga ko'ra shahar yo'lovchilar tashish transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo'yicha xizmatlarga, tadbirlar o'tkazish uchun tashish bo'yicha xizmatlarga, shu jumladan shahar tashqarisiga tashishga ham tatbiq etiladi;

11) oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

13) tibbiy (veterinariya) xizmatlari (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno), dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar. Ushbu bandning qoidalarini qo'llash maqsadlarida:

- tibbiy xizmatlar jumlasiga tibbiy yordam xizmatlari va sanitariya xizmati ko'rsatish, diagnostika, profilaktika va davolash xizmatlari, gomeopatik, stomatologik xizmatlar, tish protezlari tayyorlash bo'limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish komissiyalari, dezinfektsiya stantsiyalari, sanitariya va epidemiyaga qarshi kurash yo'nalishidagi laboratoriyalar hamda bo'linmalar, boshqa tibbiy hamda tibbiy-sanitariya yo'nalishidagi muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi;

- veterinariya xizmatlari jumlasiga hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog'laridagi, tajribaxonalardagi va boshqa shu kabilardagi jonivorlarni) kasalliklardan muhofaza qilish va ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yaxshi sifatli chorvachilik mahsulotiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonlarga va insonga xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etish tadbirlari kiradi;

14) chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;

15) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari. Ushbu bandni qo'llash maqsadida:

- sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ko'rsatilishidan qat'i nazar sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari jumlasiga kiradi;

- turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko'rsatish uchun yo'llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida belgilangan transportda

xizmat ko'rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo'ladi;

- jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari jumlasiga sport inshootlarida sport musobaqalari, bayramlari, sport-tomosha tadbirlari, sport inshootlarida o'tkaziladigan kalendar va match uchrashuvlari, sport turlari bo'yicha o'quv guruhlari hamda komandalari, sog'lomlashtirish, umumjismoniy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish yo'nalishidagi, chiniqish, suzish, sog'lomlashtirish maqsadidagi yugurish va yurish, atletika, ritmika va davolash gimnastikasi maktablari hamda klublarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari o'tkazish bo'yicha, sport inshootlariga qatnovchilarga biletning (abonementlarning) qiymatida nazarda tutilgan sport-texnika asbob-uskunalarini, trenajyorlarni, inventarlarni, sport ust-boshlarini berib turish bo'yicha xizmatlar hamda boshqa xizmatlar kiradi;

17) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

18) geologiya va topografiya ishlari;

19) bosma mahsulotlar, shuningdek bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari). Ushbu bandni qo'llash maqsadida:

- bosma mahsulotlar jumlasiga kitoblar, gazetalar, jurnallar, ma'lumotnomalar, risolalar, albomlar, plakatlar, bukletlar, otkritkalar, daftarlar, rasm va chizmachilik albomlari, blankalar hamda boshqa bosma mahsulotlar kiradi;

- tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari) jumlasiga maket tayyorlash, kompyuter grafikasi, sahifalash, original maketlar tayyorlash, muqovalash, adadlarni tayyorlash, reklama murojaatlarini qabul qilib olish, rasmiylashtirish va nashrlarda joylashtirish, rang berish, yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta'minlash, axborot to'plash hamda uni qayta ishlash, matnlarni tarjima qilish ishlari, magnit va qog'oz nusxalarda pochta aloqasi hamda Internet orqali realizatsiya qilish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi

tahririy, matbaa va noshirlik ishlari kiradi. Alohida va uzil-kesil ishlar (xizmatlar) tarzida amalga oshiriladigan, matbaa mahsuloti ishlab chiqarish hamda uni realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan tahririy, matbaa va noshirlik ishlariga (xizmatlariga) qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;

20) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

23) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

24) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari, umumiy foydalanishdagi antennalarni o'rnatish hamda ularni tasarruf etish bo'yicha xo'jaliklar, er resurslari va davlat kadastri, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;

26) vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo'linmalari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;

27) davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari;

28) o'zi etishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti;

29) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;

31) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan er-kadastr, er tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;

32) davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;

33) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

34) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk;

35) davlat mulkini ijaraga berish bo'yicha xizmatlar.

36) ommaviy axborot vositalarini va kitob mahsulotlarini etkazib berish xizmatlari.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish;

2) depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;

3) to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar;

4) milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno;

5) yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar depo-hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish;

6) qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni o'tkazish hamda qimmatli qog'ozlar reestrini yuritish bo'yicha operatsiyalar, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo'yicha xizmatlar bundan mustasno;

7) qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish;

8) kliring operatsiyalari;

9) akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

- 10) pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar;
- 11) chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;
- 12) kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);
- 13) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- 14) forfeyting va faktoring operatsiyalari;
- 15) lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);
- 16) jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti.
- 17) mijozlarning hisob raqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar.

Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

b) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tantemalar;

v) sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

g) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovini;

d) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo'yicha daromadlar;

e) sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

j) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug'urta qildiruvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga o'tkazilgan foizlar;

z) hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

i) sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan sug'urta rezervlari va sug'urta fondlari mablag'larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) etkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta to'lovi (sug'urta tovon);

b) preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

v) sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

g) sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) mablag'lari, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan xom ashyo. Mazkur imtiyoz olib kirilayotgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalariga tatbiq etilmaydi;

7) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni etkazib berish texnologik asbob-uskunalarini etkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda,

mazkur imtiyozning amal qilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

11) qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-taxta materiallari va yog'och.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Yunusobod tumanida ro'yxatdan o'tgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarga ega soliq to'lovchilar to'g'risida ma'lumot berilgan (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Yunusobod tumani bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozga ega soliq to'lovchilar to'g'risida ma'lumot²⁴

Soliq to'lovchilar	01.01.2012 yil holatiga ko'ra		01.01.2013 yil holatiga ko'ra		01.01.2014 yil holatiga ko'ra	
	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda
Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, jami	1488	100	1509	100	1673	100
Shundan, imtiyozga ega qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari	92	6,2	104	6,9	129	7,7

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozga ega soliq to'lovchilar o'sish tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2011 yilda jami qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari 1488 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan imtiyozga ega

²⁴ Yunusobod tumani DSI xisobot ma'lumotlari.

bo'lgani 92 ta yoki 6,2 foiz, 2012 yilda jami qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari 1509 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan imtiyozga ega bo'lgani 104 ta yoki 6,9 foiz, 2013 yilda esa jami qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar 1673 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 129 tasi imtiyozga ega bo'lgan yoki 7,7 foizni tashkil etgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Sqqs = Say \times S / 100; (1), \text{ bunda:}$$

Sqqs - iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan narxlar va tariflar bo'yicha sotilganida - soliq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Sqqs = Tq \times S / (S + 100); (2),$$

bunda:

Tq - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan yoki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotadigan korxonalar erkin (shartnomaviy) narx va tarifga qo'shilgan qiymat solig'i summasini qo'shmaydilar. Bunday tartib amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

2.3. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash tartibi tahlili

Soliq kodeksining 224-moddasiga muvofiq soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Tovarlarini import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Buni quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin.

Quyidagi jadvalda biz Yunusobod tumanida ro'yxatdan o'tgan "ALIMAR DIAMOND" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2013 yil uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitobini tahlil qilamiz (6-jadvalga qarang).

6-jadval

"ALIMAR DIAMOND" mas'uliyati cheklangan jamiyatining qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi 2013 yil uchun²⁵

Ko'rsatkichlar	satr	summa
Hisobot davrida olingan hisobvara-q-fakturalar bo'yicha haqiqatda kelib tushgan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, yoqilg'i, ishlar, xizmatlarning qiymati (QQSni hisobga olmasdan)	1	1493940,0
Hisobga qabul qilinadigan QQS summasi	5	298788,0
Yuklab jo'natilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati, QQSni hisobga olmasdan, ulardan jami	6	15567740,0
Soliqqa tortilmaydigan oborot hajmi	7	1547434,0
Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan oborot hajmi	10	14020306,0
QQS stavkasi	11	20%
Yuklab jo'natilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisoblab yozilgan QQS summasi	12	2804061,0
Hisob-kitob bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi	13	2505273,0
Oldingi hisob-kitob bo'yicha hisoblab chiqarilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi	14	2087663,0
Qo'shilgan qiymat solig'i summasi (13 satr-14 satr) qo'shimcha to'lashga	15	417610,0

²⁵ "ALIMAR DIAMOND" mas'uliyati cheklangan jamiyatining yillik hisoboti.

Demak, “ALIMAR DIAMOND” mas’uliyati cheklangan jamiyati qo’shilgan qiymat solig’i bo’yicha hisob-kitobni mazkur jadvaldagi tartib asosida amalga oshirgan va byudjetga 2013 yil uchun 2505273,0 ming so’m to’lagan.

Qo’shilgan qiymat solig’ining hisob-kitobi soliq bo’yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo’yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to’lovchilar, bundan kredit va sug’urta tashkilotlari mustasno, qo’shilgan qiymat solig’ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo’yicha hisobvara-q-fakturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to’lovchilar, bundan kredit va sug’urta tashkilotlari mustasno, qo’shilgan qiymat solig’ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo’yicha hisobvara-q-fakturalar reestrlarini taqdim etadi.

Qo’shilgan qiymat solig’ini to’lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- qo’shilgan qiymat solig’i to’lovchisi bo’lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - qo’shilgan qiymat solig’i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to’lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo’yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Import qilinadigan tovarlar bo’yicha qo’shilgan qiymat solig’ini to’lash bojxona to’g’risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Hisobga olinadigan qo’shilgan qiymat solig’i summasining soliq davri yakunlariga ko’ra hisoblangan soliq summasidan ortiqchaligi saqlanib qolgan taqdirda, ushbu ortiqcha summa keyingi soliq davriga o’tkaziladi va qo’shilgan qiymat solig’i bo’yicha kelgusi to’lovlar hisobiga o’tkaziladi yoxud soliq to’lovchiga mazkur moddada belgilangan tartibda qaytariladi.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining soliqni qaytarib berish to'g'risidagi yozma arizasini olgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qoplanadi;
- soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud qarzi qoplanadi;
- soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini pul mablag'larini bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq to'lovchiga qaytarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish uchun soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni yozma arizaga to'rt nusxada ilova etgan holda taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxs qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendar oy mobaynida amal qiladi;

- qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi;
- agar yuridik shaxsga ilgari qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib berilgan bo'lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Soliq kodeksining 227-moddasiga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'langan summasi soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, soliq to'lovchiga qaytariladi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining navbatdagi hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha navbatdagi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining soliq davri yakunlariga ko'ra hisoblangan soliq summasidan ortiqchaligi saqlanib qolgan taqdirda, ushbu ortiqcha summa keyingi soliq davriga o'tkaziladi va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi yoxud soliq to'lovchiga mazkur moddada belgilangan tartibda qaytariladi.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining soliqni qaytarib berish to'g'risidagi yozma arizasini olgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Soliq kodeksining 207-moddasiga muvofiq, to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qoplanadi;
- soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud qarzi qoplanadi;
- Soliq kodeksining 228-moddasiga muvofiq soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

Soliq kodeksining 228-moddasiga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'i summasini pul mablag'larini bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq to'lovchiga qaytarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish uchun soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni yozma arizaga to'rt nusxada ilova etgan holda taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxs qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendar oy mobaynida amal qiladi;
- qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi;
- agar yuridik shaxsga ilgari qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib berilgan bo'lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Soliq to'lovchilar ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1) tovarlarni eksport qilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar — hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek chet el valyutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni;

1¹) tovarlar eksportini vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxslar — hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek chet el valyutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni yoki ularning ko'chirma nusxalarini;

2) chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilayotgan yuridik shaxslar — belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hisobvaraqq-fakturalarning nusxalarini;

3) “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko'rsatayotgan, shuningdek chet el yuklarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tashish (tranzit tashish) bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar:

- ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun tuzilgan kontraktning nusxasini;
- bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan haq to'langanligini tasdiqlovchi bank ko'chirmasi nusxasini;
- ishlarni (xizmatlarni) sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjat nusxasini;

4) aholiga suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar — nol darajali stavka qo'llanganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish to'g'risidagi yozma arizani ko'rib chiqish hamda mablag'larni soliq to'lovchining hisobvarag'iga ushbu moddaga muvofiq o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

III BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

3.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish masalalari

Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zaro uyg'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovaroborotining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalariga to'g'ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o'rtasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg'unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Hozirgi vaqtda qo'shilgan qiymat solig'i Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Evropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi²⁶.

Hozirgi Frantsiyadagi soliqni uch xil gruppaga ajratish mumkin: daromad solig'i, shaxslarni daromad olganda keyingi to'lanadigan solig'i (ish haqi), iste'mol solig'i. Qachonki olingan foyda ayrim tovarlar olish uchun sarflanadi,

²⁶ Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложения. -М.: МЦФЭР. 2003. 57 стр.

kapital uchun to'lanadigan soliq. Soliq tizimi asosan iste'mol yo'nalishiga qaratilgan bo'lib uning asosiy ko'rsatkichi olingan foyda (daromad)dir. Hozirda qo'shilgan qiymat solig'i ustida chop ketganda barcha ishlab chiqarish va iste'mol uchun qilingan barcha sarf harajatlar ko'zda tutilib barcha yo'nalishlar bo'yicha soliqqa tortilishini tushuniladi. Tashqi bozor bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi. Import bo'yicha bajariladigan barcha operatsiyalar qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i bajariladigan ishning turlariga bog'liq bulib u soliq to'lovchining moliyaviy holatiga bog'liq bo'lmaydi. Soliq stavkasi tovarni bahosiga bog'liq bo'lmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i ob'ekti sotilgan tovarlarni qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar tashkil etadi. Bundan tashqari boshqa qilingan harajatlar ham hisobga olinadi (yuklarni tashish, ortish, ushirish, boj va h.k.). Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblaganda, xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi. Soliqni asosiy stavkasi - 18,6% tashkil etib eng yuqori stavka esa (22%) bu stavka asosan ayrim tovar turlariga (avtomobil, kinofototovarlar, tamaki mahsulotlari, atrupa, qimmatbaho mo'yna) qo'llaniladi. Eng past soliq stavkasi ya'ni (5,5%) oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, kitoblar, dori-darmonlar uchun qo'llaniladi. Xuddi shunday past stavkalar ayrim xizmat ko'rsatish sohalari mehmonxona turisti yuk tashish, passajir transportlari, ishlab chiqarish korxonalarida ovqatlanishlarni tashkil etish va h.k.da qo'llaniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi:

- ma'muriy ijtimoiy, tarbiyaviy, madaniy, sport sohalari bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi davlat muassalari;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish;
- yakka tadbirkorlik, yakka faoliyat ko'rsatuvchi shifokorlar;
- diniy yo'nalishda xizmat qilayotganlar.

Qo'shilgan qiymat solig'i ayrim bojlar bilan to'ldiriladi. (boj, aktsiz) bular ham iste'mol qiymatiga ega bo'lgan iste'mol solig'ini vujudga keltiradi. Bularni ayrimlari davlat hisobiga ayrimlari maxalliy byudjetga o'tkaziladi.

Qo'shilgan soliqqa tortiladigan tovarlarga quyidagilar kiradi: spirtli ichimliklar, tabaki mahsulotlari, gugurt, zanjir, qimmatbaho toshlardan tayyorlangan mahsulotlar, shakar, konditer mahsulotlar, uchuvchi apparatlar, pivo va shifobaxsh suvlar, ayrim turdagi avtomobillar.

Evropa Ittifoqining maxsus Direktivasiga muvofiq 1992 yilning 19 oktyabridan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ining minimal stavkalari belgilab berildi. Xususan, 1993 yilga qadar minimal stavkalarda qo'shilgan qiymat solig'ini olish bitta mamlakatda amalga oshiriladigan bo'ldi. Ya'ni, nollik stavka eksportyor mamlakatida qo'llaniladi, minimal stavkalar bo'yicha tovarlar va xizmatlar importyorlarning mamlakatida soliqqa tortiladi²⁷. Jismoniy shaxslar tomonidan sotib olingan tovarlar mazkur tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Chunki, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasida fuqarolarning harakatlanishi erkin bo'lib, ular turli mamlakatlarda o'zlarining shaxsiy is'temollari uchun tovarlar xarid qiladilar. Shuning uchun qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni osonlashtirish maqsadida tovarlar sotib olingan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Fuqarolar yashash joylariga qaytib kelganlarida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaydilar.

Frantsiyada standart soliq stavkalari mavjud bo'lib, 1998 yildan boshlab, ularning miqdori 20,6 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan va oshirilgan stavkalari ham mavjuddir. Qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan stavkalari 5,5 foiz va 2,1 foizni tashkil etsa, oshirilgan stavka 25 foizni tashkil etadi²⁸. Frantsiyada va Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiya qilingan mablag'lardan qo'shilgan qiymat solig'i olinmaydi. Shuningdek, tijorat banklari, moliya muassasalari, o'quv yurtlari qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaydilar.

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan dastlabki paytda uning stavkasi 10 foizni tashkil qilardi, keyin esa soliq stavkasi 8 foiz qilib belgilandi. Hozirgi vaqtda asosan 3 xildagi qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi

²⁷ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. -М.: "Кнорус". 2004. стр 204

²⁸ Сердюков А. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. -СПб.: "ПИТЕР". 2005. стр. 51

mavjud bo'lib, nollik stavka, pasaytirilgan stavka (5%) va oshirilgan stavka (17,5%)lardan iborat²⁹. Pasaytirilgan stavkada shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladigan elektr toki hamda gaz qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Nollik stavkada esa oziq-ovqat mahsulotlari, jamoat transporti xizmatlari nashriyot mahsulotlari, urug'chilik va chorvachilik mahsulotlari soliqqa tortiladi. Buyuk Britaniyada ta'lim, meditsina xizmatlari, sug'urta va brokerlik xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Shunisi e'tiborliki, Buyuk Britaniyada yillik oboroti 54 000 funt sterlingacha bo'lgan tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilinganlar (O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni belgilashda tadbirkorlar yillik oborotining miqdori hisobga olinmaydi). Bizning fikrimizcha, mulk shaklidan va iqtisodiy maqomidan qat'iy nazar, barcha tadbirkorlarga qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydigan yillik oborot miqdorini belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ko'plab faoliyatini endi boshlagan tadbirkorlar ishlab-chiqarish va muomala xarajatlarining yuqori bo'lganligi sababli, ishlab chiqargan tovarlarning bahosini pasaytirish imkoniyatiga ega emaslar. Ularga nisbatan 20 foizli qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llanilishi tovarlar bahosini sezilarli ravishda o'sishiga olib keladi. Natijada mazkur tadbirkorlar ishlab chiqargan tovarlarning raqobatbardoshligi yanada pasayadi.

Irlandiyada 2001 yildan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 20 foiz qilib belgilandi. Mazkur stavka 2001 yilga qadar 21 foizni tashkil qilar edi. Standart stavkadan tashqari, nollik stavka va pasaytirilgan stavkalar (12,5 – 4,3 foiz) mavjud. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar nollik stavkani qo'llash shaklida soliqqa tortilmaydigan yillik oborotni belgilab qo'yish shaklida qo'llaniladi.

Irlandiyaning eksport salohiyatini oshirish maqsadida eksportga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ining nollik stavkasi qo'llaniladi. Bundan tashqari agar tadbirkorning tovoroborotining umumiy hajmida eksport operatsiyalarining

²⁹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // . –М.: “Кнорус”. 2004. стр 206

salmog'i 75 foizdan oshsa, u holda tadbirkor nollik stavkadan foydalanishga haqli hisoblanadi³⁰.

Belgiyada mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ining 2 ta pasaytirilgan stavkasi qo'llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavkada asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta'minoti, kinoteatrlar va mehmonxonalar xizmati qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkada esa kommunal to'lovlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Pasaytirilgan stavkalardan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy stavkasi ham mavjud bo'lib, uning miqdori 21 foizni tashkil qiladi.

Italiyada qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari 4, 10 va 20 foizni tashkil qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari, eksportga tovar sotish va kompaniyalarning aktivlarini sotib olish xarajatlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.

Gollandiyada 2001 yildan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 19 foizni tashkil qiladi. Mazkur stavka 2001 yilga qadar 17 foizni tashkil qilar edi. 6 foizli pasaytirilgan stavka oziq-ovqat mahsulotlariga, jamoat transport xizmatlariga, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ayrim turlariga nisbatan qo'llaniladi. Nollik stavkalar esa eksportga nisbatan qo'llaniladi. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar va ayrim turdagi moliyaviy xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.

Shvetsiyada qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy stavkasi 25 foizni tashkil qiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkalar oziq-ovqat mahsulotlariga va mehmonxona xizmatlariga nisbatan qo'llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavka esa ro'znomalarga va madaniy tadbirlarga nisbatan qo'llaniladi. 2001 yildan boshlab, yo'lovchi transporti xizmatlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi amaldagi 12 foizdan 6 foizga tushirildi. Shunisi e'tiborliki, Shvetsiyada yillik oboroti 1 mln. Shvetsiya Kronidan oshmaydigan tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilinganlar³¹.

³⁰ Поляк Г. Налоги и налогообложение. -М.: "ЮНИТИ". 2002. стр. 46

³¹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. стр. 131.

XX asrning 80 yillaridan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'i Amerika, Afrika va Janubiy-Sharqiy Osiyo hududidagi mamlakatlarning soliq amaliyotiga joriy qilindi. Yaponiya, Turkiya Hindiston, Indoneziya, Braziliya, Kolumbiya, Misr kabi davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i mana shu davrda joriy qilingan.

Yaponiyada qo'shilgan qiymat solig'i 1984 yilda joriy qilingan. 1989 yilga qadar Yaponiyada qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etilishi ishlab-chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qildi. Bu ta'sir ayniqsa, qo'shilgan qiymat salmog'i sezilarli bo'lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarga nisbatan kuchli bo'ladi, degan g'oya mavjud edi. Shuning uchun Yaponiyada Evropa davlatlariga nisbatan uzoq muddat mobaynida qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilmadi.

Rossiya Federatsiyasida 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i oborot solig'ining o'rniga joriy etildi. Bu soliq oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo'shilgan qiymat solig'i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi³².

Ayni vaqtda, xorijiy mamlakatlar amaliyotida ham qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetiga jalb qilishda sezilarli muammolar mavjud. Ana shunday asosiy muammolardan biri, ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining har bir bosqichida yaratilgan qo'shilgan qiymatni to'liq hisobga olish imkonining mavjud emasligi hisoblanadi. Soliq organlari soliq to'lovchilarning barcha schyot-fakturalarini tekshirish uchun jismoniy imkoniyatlarga ega emaslar. Shuning uchun schyot-fakturalar tanlanma tekshiruv asosida tekshiriladi. Bunda har bir bitim bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning natijalari hisobotlarda o'z aksini topmaydi, hisobotlarda faqat qoldiq ko'rsatkichlar o'z aksini topadi. Bundan tashqari, soliq organlari bojxona organlaridan har doim ham ishonchli ma'lumotlarni to'liq hajmda ololmaydilar. Buning sababi shundaki, soliq to'lovchilar tomonidan bojxona hujjatlarini noto'g'ri to'ldirilganligi hisoblanadi. Masalan, Shvetsiyada hisobotlardagi taqqoslab bo'lmaydigan ma'lumotlarning 87

³² Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003. стр. 45

foizi hujjatlarni noto'g'ri to'ldirish natijasida yuzaga kelgan nomuvofiqlikga to'g'ri keladi, 10 foizi esa soliq davrlarining mos kelmasligiga to'g'ri keladi³³.

Xorijiy mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini daromad manbai sifatida qo'llash tajribasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy kon'yunkturaning tebranishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbai hisoblanadi; ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i aholini nisbatan kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish imkonini beradi; uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; to'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i faoliyatini yaqinda boshlagan va katta miqdordagi tovaroborotiga ega bo'lmagan tadbirkorlarni rag'batlantirishni moliyaviy vositasi hisoblanadi.

3.2. Davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'ini undirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish masalalari

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda, fikrimizcha, egri soliqlarni, shu jumladan, davlat byudjeti daromadlarining manbai sifatidagi rolini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi, hukumatning bosh islohotchi sifatida yirik investitsion xarajatlarining mavjudligini hisobga olib, davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar summasining barqaror salmog'ini ta'minlash zarur.

- qo'shilgan qiymat solig'ini undirish yuzasidan Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan etakchi davlatlarning soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalaridan respublikamiz sharoitida keng ko'lamda foydalanish zarur. Xususan, soliq

³³ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 134.

stavkalarini ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlarning turlari bo'yicha tabaqalashtirish tartibini, tadbirkorlarning soliqqa tortilmaydigan oborotlari bo'yicha minimal miqdorni belgilash usulini respublikamizning soliq amaliyotida qo'llash ijobiy natijalar beradi.

- qo'shilgan qiymat solig'ini undirish va hisoblash usullarini takomillashtirish zarur.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning chegirmalash usulida korxona to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini sotib olingan va ishlab-chiqarish jarayonida ishlatilgan tovarlar (xizmatlar) qiymatini bu tovarlarni ishlatish yo'li bilan ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarning qiymatidan chegirib tashlash va olingan natijani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblaydi. Shunday qilib, soliq bazasini aniqlashda sotilgan tovarlar qiymatidan xom-ashyo va boshqa oraliq tovarlarning qiymati chegirib tashlanadi.

Haqiqatda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning mazkur usuli foydani hisoblash usuliga yaqin, lekin uning murakkabligi shundaki, har doim ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan tovar-moddiy qimmatliklarning qiymatini noto'g'ri aniqlash xavfi saqlanib qoldi. Mazkur usulning asosiy kamchilligi shundaki, sotib olingan resurslar bo'yicha to'langan soliqlar summasi tannarxning tarkibida aks ettiriladi. Buning natijasida "yig'ilgan soliq" samarasi yuzaga keladi, soliqni undirish modeli esa ma'lum darajada kumulyativ xarakterga ega bo'lib qoladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning voz kechish usuli Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Bunda qo'shilgan qiymat solig'ining summasi tovarlar va xizmatlarni sotib olish jarayonida to'langan soliq summasini sotilgan tovarlar bo'yicha hisoblangan soliq summasidan ayirib, olingan natijani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Mazkur usulning muhim xususiyati shundaki, qo'shilgan qiymat solig'ining summasi har bir tovar turi bo'yicha ishlab chiqarishning so'nggi bosqichidagi soliq stavkasiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, agar oldingi bosqichlarda soliq stavkasi past

bo'lgan bo'lsa yoki soliqdan ozod qilingan bo'lsa, bu engillik ishlab chiqarishning so'nggi bosqichida olingan soliq summasi hisobidan qoplanib ketadi.

Demak, chegirmalash usulida voz kechish usuliga xos bo'lgan mazkur kamchilik mavjud emas. Buning ahamiyatga molik jihati shundaki, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlarining asosiy qismi tovarlarni ishlab chiqarish bosqichiga tegishlidir. Bu esa, ko'plab imtiyozlarni ta'sirchanligini pasayishiga olib keladi, chunki xo'jalik sub'ektlar qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha muomala bosqichida imtiyozga ega bo'lmaganligi sababli imtiyozga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar bilan oldi-sotti munosabatlarini amalga oshirishdan manfaatdor bo'lmaydi.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, voz kechish usulida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar berish faqat bittagina holatda ya'ni, imtiyozga ega bo'lgan korxonaning o'zi tovarlarni bevosita iste'moliga sotsa yoki tovarlar qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan chakana savdo korxonalari orqali sotilsagina samara beradi.

Agar qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan korxona so'nggi iste'molchi o'rtasida imtiyozga ega bo'lmagan oraliq bo'g'in mavjud bo'lsa, u holda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan imtiyoz o'zining samaradorligini yo'qotadi. Barcha mahsulot va ish, xizmatlarni bajaruvchilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar yoki ozod bo'ladilar, ba'zi bir guruxdagi xo'jalik sub'ektlariga esa qo'shilgan qiymat solig'i to'lash o'rniga alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lash o'rniga alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo'jalik sub'ektlariga yagona soliq to'loviga o'tgan kichik korxona va mikrofirmalar, yagona yer solig'i to'lashga o'tgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari kiradi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lish, alohida soliqqa tortish tartibining joriy qilinishi xo'jalik sub'ektlarining soliq to'lashi bo'yicha majburiyatlaridan to'liq ozod etilishini bildirmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishida faqat ishlab chiqarishda hosil bo'lgan qo'shilgan qiymatgina soliqqa tortilmaydi. Lyokin ushbu qo'shilgan qiymatni xosil qilishga ketgan ishlab chiqarish xarajatlari

ilgaritdan qo'shilgan qiymat solig'igiga tortilgandir. Shunday qilib, xo'jalik sub'ektlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi yoki alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xaqida gapirilganda ular tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini xisoblamasligi va uni byudjetga to'lamasligi e'tibor berishimiz, biroq ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish xom ashyolar uchun, yonilg'i-moylash materiallari, elektroenergiya, boshqa materiallarga, shuningdek ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish vositalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini tulaydilar.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo'jalik sub'ektlari moliyaviy faoliyati uchun o'ziga xos ikki xususiyatga egadir. Chunki ular xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy faoliyatiga turlicha ta'sir qiladi. Birinchi xususiyati shundaki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, alohida soliqqa tortish tartibi joriy kilingan xo'jalik sub'ektlari o'z tovar va xizmatlarini sotganda ushbu tovar va xizmatlar tannarxida ishlab chiqarish materiallarini sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i to'g'ridan-to'g'ri kiritadi, hamda boshqa ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish tannarxining elementi sifatida o'zida aks ettiradi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi xaqida gap ketganda o'ziga xos so'z o'yini bo'ladi. Chunki soliqdan ozod qilinishi bilan byudjetga soliqdan ozod bo'ladi, lyokin ishlab chiqarish uchun olingan mahsulot va xizmatlarning tannarxiga boradigan xom-ashyolarni sotib olishda ularga xisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ini tulaydilar. Shu tufayli ishlab chiqaruvchi xom ashyo materiallarini sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini o'ziga hisob qilishga talab qila olmaydi va ular qo'shilgan qiymat solig'ini o'z tovar-xizmatlarini sotib oluvchidan olishga huquqi bulmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan hamda alohida soliqqa tortish tartibi joriy etilgan xo'jalik sub'ektlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirining ikkinchi xususiyati shundaki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar va xizmatlarni sotib olayotgan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi ro'yxatda turgan xo'jalik su'bekti o'zi tomonidan ishlab chiqarayotgan mahsulotlar uchun soliq kreditidan foydalana olmaydi. Shu tufayli ishlab chiqaruvchiga qo'shilgan qiymat

solig'ini to'lashda mahsulotlarni sotishda hisoblangan soliq va mahsulotlarni sotib olishda to'lagan soliq orasidagi farqni to'lamay, balki sotish oborotidan xisoblangan soliqni to'liq to'lashga majbur bo'ladi. Buning natijasida qo'shilgan qiymat solig'iga tortish zanjirida soliqdan ozod qilingan bo'linma tushib qolishi tufayli qo'shilgan qiymat soliqqa bir necha marotaba tortiladi va soliq to'lash og'irligi keyingi bo'linma zimmasiga tushadi. Chunki u soliqdan ozod kilingan mahsulotlarni o'z ishlab chiqarishi uchun ishlatadi. Qanchalik qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan mahsulotlar va ishlab chiqaruvchilar ko'paysa, qo'shilgan qiymat ikki yoki undan ortiq marta soliqqa tortilishi extimoli ko'paya boradi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishi, alohida soliqqa tortish tartibi qo'shilgan qiymat solig'ining mahsulotlar bahosigi va xo'jalik sub'ektlarning soliqdan ozod kilingan ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri katta bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tdikki soliqdan ozod qilingan xo'jalik su'bekti ishlab chiqarish resurslarini ko'p hollarda qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib oladilar va bu soliqni o'z ishlab chiqarish xarajatlariga to'liq qo'shadilar. Buning natijasida mahsulotning bahosi oshishga olib kelinadi.

Agar ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotining bahosini oshirishga imkoni bo'lmasa, u holda mahsulot bahosini oshirmaslik uchun ishlab chiqarish omillarini kamaytirishga majbur bo'ladi. Aks holda ishlab chiqaruvchi kam foyda olishga majbur bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz byudjeti daromadlarida bilvosita soliqlarning salmog'ini oshirish va ayniqsa, qo'shilgan qiymat va aktsiz soliqlarini byudjet daromadlaridagi barkarorligini ta'minlash lozim. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'ini undirishda soliqni oldindan undirish holatlarini yo'q qilish lozim.

Buni shunday izohlash mumkinki, qo'shilgan qiymat solig'ida soliqning byudjetga to'lanishi ishlab chiqarilgan mahsulot sotilishidan oldingi davrga to'g'ri kelmokda.

Bu o'z navbatida, korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, korxonaning investitsion faoliyatini qisqartiradi. Ya'ni, soddarok kilib aytadigan

bo'lsak, mavjud bo'lmagan daromad uchun soliq olinadi. Bu o'z-o'zidan milliy ishlab chikarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kelajakda korxonalar tomonidan davlat byudjetiga to'lanadigan soliqlarning qisqarishiga va natijada, byudjet daromadlarining kamayishiga olib keladi.

Shunday qilib, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish tufayli korxona o'z mahsuloti bahosini oshirishga majbur bo'ladi yoki aks holda foyda miqdorini yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga majbur bo'ladi.

Birinchi holda, qo'shilgan qiymat solig'i ist'emolga ta'sir qilib, bahoni oshirishga olib keladi, ikkinchi holda esa, ishlab chiqarishga ta'sir qilib, foydani kamaytirishga olib keladi.

XULOSA

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan oraliq tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Bunda ishchi kuchi bilan bog'liq xarajatlar hisobga olinmaydi. Ushbu bildirilgan fikrdan kelib chiqadiki, qo'shilgan qiymatni ishchi kuchiga qilingan xarajatlar (ishlab-chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi xodimlarga berilgan ish haqi, mukofotlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar) va tovarni ishlab chiqarish natijasida olingan foyda summasiga teng bo'lgan miqdor sifatida ham ko'rish mumkin. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi. Tovarlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonida ishtirok etuvchi har bir ishtirokchi qo'shilgan qiymatning ustiga o'zining hissasini qo'yadi. Shuning uchun tovarlarni va xizmatlarni qiymati ularni ishlab chiqarish va sotish jarayonida qo'shilgan qiymatlarning umumiy summasiga teng.

Shunday qilib, qo'shilgan qiymat egri soliqlarni undirish uchun birlamchi ob'ektiv asos bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimida qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati, maqsad va azifalari hamda ularni soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri, byudjet daromadidagi hissasini tahlil qilish va bu boradagi majud muammolarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'ining amal qilish tartibi asoslari ishlab chiqilgan;
- qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy betaraflik shakli sifatidagi eksportga soliqlarni aniq belgilash va qaytarish imkoniyatini yaratadi;
- tashqi savdoga nisbatan betaraf, tovarlarni ichki ishlab chiqarish va sotish borasida aralashuvlarni keltirib chiqarmaydi;
- ishlab chiqarishning ko'p mehnat yoki sarmoya talab qiladigan tarmoqlariga, mulkchilik shakliga ta'sir qilmaydi;

- davlat daromadlarining manbai sifatida barqaror, ishonchli va tushunish uchun nisbatan engil soliqqa tortish vositasi;

- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendentsiyasiga ega ekanligi, hukumatning bosh islohotchi sifatida yirik investitsion xarajatlarining mavjudligini hisobga olib, davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar summasining barqaror salmog'ini ta'minlash zarur.

Qo'shilgan qiymat solig'idagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yoki uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini respublikamizdagi yutuq va kamchiliklarni hisobga olgan holda hamda tajribasi yuqori bo'lgan xorijiy mamlakatlarning soliq tizimidagi yutuqlarini hisobga olib yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni kiritmoqchimiz:

1. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmining soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish va mazkur soliq bo'yicha tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini joriy qilish lozim;

2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq taqdim etilayotgan imtiyozlar va noqonuniy hatti-harakatlarga nisbatan qo'llanilayotgan moliyaviy sanksiyalar hamda jarimalar tartibini kompleks tarzda tahlil qilish asosida, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ini byudjet daromadlarini shakllantirish darajasidagi tarkibini e'tiborga olgan holda soliq imtiyozlarini berish va jarima solishning aniq chegaralarini aniqlash lozim.

3. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qo'shilgan qiymat solig'ining ortib jo'natilgan usulidan to'liq foydalanishda xaridorlar uchun iqtisodiy noqulay holatlar vujudga kelmoqda. Albatta, bu holat vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tganimizdan keyin o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketishi mumkindir. Ammo hozirgi kundagi vaziyat sotuvchi va ishlab chiqaruvchi, xaridor va iste'molchiga nisbatan noqulay tenglikda bo'lmoqda. Ya'ni xaridorlar iqtisodiy tomondan ustuvor moliyaviy qulayliklarga ega bo'lyapti. Bizning fikrimizcha, shakllanayotgan bunday vaziyatni yaxshilash yoki qisman yumshatish uchun quyidagi tadbirni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, xarid qilib

olingan tovarlar, mahsulotlar, xizmatlar va ishlar uchun 15 foizlik oldindan to'lovni va qolgan 85 foizlik keyingi to'lovni qanday bo'lsa shunday holatda qoldirishni maqsadga muvofiq deb, ayni shu davrda sotuvchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq tanaffusi berishni yo'lga qo'yish va shu davrlar ichida (so'nggi 85 foizni to'liq to'lagunga qadar, ya'ni 90 kun ichida) aybona va jarimani undirishni bekor qilish lozim. Ana shunday moliyaviy chora-tadbir amal qilsa, sotuvchi korxonalar o'z aylanma mablag'larini maqsadli yo'nalishi bo'yicha sarflashga qulay imkoniyat tug'iladi.

4. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish yuzasidan Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan etakchi davlatlarning soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalaridan respublikamiz sharoitida keng ko'lamda foydalanish zarur. Xususan, soliq stavkalarini ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlarning turlari bo'yicha tabaqalashtirish tartibini, tadbirkorlarning soliqqa tortilmaydigan oborotlari bo'yicha minimal miqdorni belgilash usulini respublikamizning soliq amaliyotida qo'llash ijobiy natijalar beradi.

5. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish va hisoblash usullarini takomillashtirish zarur. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning chegirmalash usulida korxona to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini sotib olingan va ishlab-chiqarish jarayonida ishlatilgan tovarlar (xizmatlar) qiymatini bu tovarlarni ishlatish yo'li bilan ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarning qiymatidan chegirib tashlash va olingan natijani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblaydi. Shunday qilib, soliq bazasini aniqlashda sotilgan tovarlar qiymatidan xom-ashyo va boshqa oraliq tovarlarning qiymati chegirib tashlanadi. Haqiqatda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning mazkur usuli foydani hisoblash usuliga yaqin, lekin uning murakkabligi shundaki, har doim ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan tovar-moddiy qimmatliklarning qiymatini noto'g'ri aniqlash xavfi saqlanib qoldi.

6. Bizning fikrimizcha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- qo'shilgan qiymat solig'ining maqsadlarini amalga oshirish uchun uning bazasi lozim darajada keng bo'lishi, tovarlar va xizmatlarning imkoni boricha ko'p sonini qamrab olishi zarur;

- qo'shilgan qiymat solig'i biznesning shakl va usullarini tanlashga, shuningdek, iste'molchilarning tovarlarni tanlashiga ta'sir qilmasligi kerak, bu soliq kreditining qisqa muddatda kaytarilishini, qo'shilgan qiymat bazasining barcha iste'mol tovarlariga, ya'ni xom ashyo, oraliq mahsulotlar, ishlab chiqarish maqsadidagi tovarlarga taalluqli bo'lishini taqozo etishi;

- qo'shilgan qiymat solig'i pirovard maqsad tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak. Bu import tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ining ichki mahsulotga soliqdan farq qilmasligi kerakligini, eksport tovarlarining qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmasligini bildiradi. Shuningdek, bu soliq turi soliq to'lovchilarning tushunib etishi uchun sodda va engil bo'lishi kerak.

- qo'shilgan qiymat solig'idan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishda, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishga imkoniyat yaratib berishda hamda byudjet daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida foydalanish lozim.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida keltirilgan mulohaza va takliflar respublikada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bilvosita soliqqa tortishning roli va ahamiyatini yanada oshirish imkoniyatlarini ta'minlovchi qo'shimcha omil sifatida maydonga chiqadi, deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. -40 B.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr -O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2013 y. -590 B.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Soliq maslahati to'g'risida"gi qonuni. 2006 yil 21 sentyabr. //Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi. 2006 yil 21 sentyabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni. 2000 yil 14 dekabr. //Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi. 2001 yil 2-son.

1.6. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari

1.12. Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - Toshkent.: "O'zbekiston" 1995 y.

1.13. Karimov I. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. –T.: "O'zbekiston". 2005.

1.14. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: "O'zbekiston", 2005.

1.15. Karimov I. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: "O'zbekiston". 2009.

1.16. Karimov I. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi". //Toshkent oqshomi gazetasi. 2009 yil 16 fevral. №32.

1.17. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. –T.: "O'zbekiston", 2013. 384 bet

1.18. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. –T.: "O'zbekiston", 2013. 80 bet

1.19. Karimov I.A. O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak. –T.: "O'zbekiston", 2013. 36 bet

1.20. Каримов И.А. На пути решительного продолжения дальнейшего процветания и модернизации страны. –Т.: "Узбекистан", 2013. 208 стр.

1.21. Karimov I. “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi 2010 yil 29 yanvar.

1.22. Karimov I. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi. 2011 yil 21 yanvar.

1.23. Karimov I. “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi. 2012 yil 19 yanvar.

1.24. Karimov I. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. //Xalq so‘zi. 2013 yil 19 yanvar.

1.25. Karimov I. 2014-yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. //Xalq so‘zi. 2014 yil 19 yanvar.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. –T.: “Sharq”. 2009. -526 b.

2.2. Almardonov M., Kuzieva N. Soliqlar va soliqqa tortish. -T.: “Iqtosod-moliya”. 2007.

2.3. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. –T.: “NOSHIR”, 2012. 236 bet

2.4. Xabibullaev I., Djaylavov A. Soliq tizimida axborot texnologiyalari. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. 220 bet

2.5. Mirzamaxmudov M. Davlat maqsadli jamg'armalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy tejamkorlik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. 112 bet

2.6. Urazov K., Xudayberdiev N. Soliqlar va to'lovlar auditining xususiyatlari. Samarqand, 2012. 300 bet

2.7. Adizov A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. Risola. –T.: “Akademnashr”, 2012. 128 bet

2.8. Soliev A. Korxona iqtisodiyoti. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. 368 bet

2.9. Usmanova M. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish muammolari. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2013. 144 bet

2.10. Vaxabov A., Toshmatov Sh., Haydarov N. Moliya savodxonligi asoslari. –T.: “Bakteriya-press”, 2013. 288 bet

2.11. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho'lpon nomidagi NMIU”, 2013. 296 bet

2.12. Meyliev O. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda soliqlarning o'rni. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2013. 136 bet

2.13. Yuldashev I. Soliq va soliqqa tortish. -T.: Fan va texnologiyalar. 2007.

- 2.14. Toshmurodova B. Soliq nazorati. //O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2007.
- 2.15. Fayziev Sh. Soliq va to'lovlar auditining xususiyatlari. -T.: "Iqtisod-moliya". 2006.
- 2.16. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005.
- 2.17. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. //O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya". 2005.
- 2.18. Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. -T.: "Akademiya". 2005.
- 2.19. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. //O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2005.
- 2.20. Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. //monografiya. –T.: "Fan". 2004.
- 2.21. Toshmatov Sh., Komilov M. Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2004.
- 2.22. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. //O'quv qo'llanma. -T.: 2003.
- 2.23. Mamanazarov A. Soliq siyosati. -T.: "Moliya". 2003. 19-bet.
- 2.24. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. –T.: "Yangi asr avlodi". 2002.
- 2.25. Торговля в Узбекистане. Статистический сборник. –Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2013. 186 стр.
- 2.26. Финансы Узбекистана. Статистический сборник. –Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2013. 136 стр.
- 2.27. Нигмаджанов У. Экономическая теория. Учебник. –Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. 328 стр.
- 2.28. Юринова Л. Налоги и налогообложение. -СПб.: "ПИТЕР". 2007.

- 2.29. Бодрова Т. Налоговый учет и формирование учетной политики для целей налогообложения. -М.: “Дашков и К”. 2006.
- 2.30. Малихин В. Экономико-математическое моделирование налогообложения. //Учебное пособие. -М.: “Висшая школа”. 2006.
- 2.31. Романова А. Организация и методы налоговых проверок. //Учебное пособие. -М.: “Вузовский учебник”. 2006.
- 2.32. Лукаш Ю. Оптимизация налогов. Методы и схемы. -М.: “Гросс Медиа”. 2005.
- 2.33. Абдурахманов О. Налоговые системы стран с переходной экономики. –М.: Палеотип. 2005.
- 2.34. Миляков. Н. Налоги налогообложение. -М.: Инфра-М. 2005. стр. 69.
- 2.35. Макарева В. Оптимизация налогообложения. –М.: ООО “Горячая линия бухгалтера”. 2005. стр. 56.
- 2.36. Сердюков А. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. -СПб.: “ПИТЕР”. 2005. стр. 51
- 2.37. Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. -М.: “Кнорус”. 2004.
- 2.38. Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложения. -М.: МЦФЕР. 2003. 57 стр.
- 2.39. Романовский М. Налоги и налогообложение.. -СПб.: “ПИТЕР”. 2003.
- 2.40. Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложение. //Учебник. –М.: МЦФЕР. 2003.
- 2.41. Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. //Учебное пособие. -М.: “Юрайт-Издат”. 2003.
- 2.42. Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003.
- 2.43. Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002.
- 2.44. Поляк Г. Налоги и налогообложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002.
- 2.45. Финансово-кредитный энциклопедический словарь. //Под ред.

А.Грязновой. -М.: “Финанси и статистика”. 2002.

2.46. Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. - М.: “Бератов-Пресс”. 2002.

2.47. Миляков Н. Налоги и налогообложение: Практикум. -М.: “ИНФРА-М”. 2001.

2.48. James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e.

2.49. Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

2.50. Jo’raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to’lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.

2.51. Niyozmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob’ektiv zarurati. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5. - B. 51-53.

2.52. “Soliq tizimini takomillashtirish yo’nalishlari” //Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2011.

2.53. “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag’batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo’llari” //Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T.: “Riso”. 2014.

III. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar.

3.1. O’zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.

3.2. O’zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.

3.3. O’zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.

3.4. O’zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2012 yil. -T.:2013.-№4.

3.5. O’zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2013 yil. -T.:2014.-№1.

3.6. O’zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2010 - 2013.

IV.Internet saytlari.

4.1. <http://www.president.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.

4.2. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti.

4.3. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.

4.4. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

4.5. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.

4.6. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

4.7. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.

ILOVALAR

STIR varaq 0 1Hujjat turi / Hisobot davri chorakSoliq davri yil

Hujjat turi: 1 – hisob-kitob, 2 – aniqlashtiruvchi (kasr orqali aniqlashtiruv raqami)

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi to'g'risida ma'lumotYuridik shaxsning
to'liq nomi

Hisobot davri uchun xodimlarning o'rtacha soni

kishi

☐

Mikrofirma

☐

Kichik korxona

☐

Yirik korxona

☐

Notijorat tashkiloti

(kerakligiga "V" belgisi qo'yilsin)

(tadbirkorlik faoliyati bilan
shug'ullanuvchi)

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma

Yuridik shaxsning joylashgan eri

Pochta manzili

Telefon:

kod

raqam

Ushbu hisob-
kitobvaraqa tuzilgan, unga ilova
qilingan tasdiqlovchi hujjatlar
yoki ularning nusxalari

varaqa

O'lchov
birligi

so'm

Hisob-kitobni taqdim etish muddati (kun/oy/yil)

(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

ga taqdim etiladi

Mazkur Hisob-kitobda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar:	Mazkur Hisob-kitob (kerakligiga "V" belgisi qo'yilsin)
STIR	☐ shaxsan ☐ pochta orqali
F.I.O.	☐ varaqa taqdim etilgan
Imzo	Taqdim etilgan sana
Bosh buxgalter	(kk/oo/yy)
STIR	F.I.O.
F.I.O.	Imzo
Imzo	
Sana (kk/oo/yy)	
M.O'.	

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaq

0	2
---	---

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi (2-ilovaning 050-satri)	010	
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (3-ilovaning 050-satri)	020	
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi (4-ilovaning 4-ustuni 010-satri)	040	
Byudjetga to'lanishi (kamaytirilishi) lozim bo'lgan QQS summasi (040-satr – 030-satr), <i>shu jumladan:</i>	050	
chorakning birinchi oyi oxiriga	0501	
chorakning ikkinchi oyi oxiriga	0502	
chorakning uchinchi oyi oxiriga	0503	

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

Qo'shilgan qiymat solig'i
hisob-kitobiga 1-ilova

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaq

0	3
---	---

Hisobga olinadigan QQS hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Qiymat	QQS summasi
1	2	3	4
QQS summasi hisobga olinishi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) (7-ilovaning 5 va 6-ustunlari yakuniy summolari)	010		
Xisobga olinadigan QQS summasiga tuzatish kiritish		x	x
umumbelgilangan soliqlarni to'lashga, shu jumladan yagona soliq to'lovchisi tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga o'tilganda, shuningdek imtiyoz bekor qilinganda QQS to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelganda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qoldiqlari bo'yicha	020		
soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga (qo'shilgan qiy-mat solig'ini to'lamagan holda) o'tganda, shuningdek imtiyozlar taqdim etilganda tovar (ishlar, xizmatlar) qoldiqlari bo'yicha	030		
Soliq kodeksining 220-moddasida nazarda tutilgan boshqa hollarda	040		
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (010-satr + 020-satr – 030-satr – 040-satr)	050		

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaqa

0	4
---	---

**Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi
hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Har bir oborotning realizatsiya bo'yicha jami oborotdagi salmog'i*	Realizatsiya bo'yicha oborot summasi	QQS
1	2	3	4	5
Tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti, jami (4- ilovaning 010-satri – 0105-satr – 0106-satr)	010	x		x
Salmog'ni hisoblash uchun qabul qilinadigan tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti (010-satr – (4-ilovaning 01023-satri)	0101			x
shu jumladan:				x
20 foizli stavka qo'llaniladigan; 4-ilovadan (0101 + 01024 + 0103 + 0104 + 0107 + 01081-satrlar)	0102			x
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari)***	0103			x
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlar eksporti:	0104	x	x	x
chet el valyutasida**	01041	x		x
jo'natish kunidagi O'zR Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutadagi ekvivalentda	01042			x
jo'natilgan tovar uchun valyuta tushumi kelib tushishi**	01043	x		x
kelib tushgan chet el valyutasining salmog'i (01043-satr / 01041- satr x 100)	01044		x	x
solliq solinmaydigan tushum (4-ilovaning 01021-satri + 01082- satr)	0105			x
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (1-ilovaning 050-satri)	020	x	x	
Olingan va realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun foydalanilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (alohida- alohida yuritiladigan hisob bo'yicha) (0301-satr+0302-satr+0303-satr+0304-satr)	030	x	x	
shu jumladan:		x	x	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun	0301	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun	0302	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valyutasidagi eksporti uchun	0303	x	x	
qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan oborot uchun	0304	x	x	
Olingan va realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun foydalanilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (mutanosib usul bo'yicha) (020-satr – 030-satr)	040	x	x	
shu jumladan:		x	x	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun (040-satr x 3-ust. 0102-satr)	0401	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (040-satr x 3-ust. 0103-satr)	0402	x	x	

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Xar bir oborotning realizatsiya bo'yicha jami oborotdagi ulushi*	Realizatsiya bo'yicha oborot summasi	QQS
1	2	3	4	5
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valyutasidagi eksporti uchun (040-satr x (3-ust. 01042-satri))	0403	x	x	
qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan oborot uchun (040-satr x (3-ust. 0105-satri))	0404	x	x	
Olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobga olinishi lozim bo'lgan QQS summasi (0501-satr + 0502-satr + 05031-satr)	050	x	x	
shu jumladan, realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun:		x	x	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun (0301-satr + 0401-satr)	0501	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (0302-satr + 0402-satr)	0502	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valyutasidagi eksporti uchun (0303-satr + 0403-satr)	0503	x	x	
shu jumladan, valyuta tushumi kelib tushganlari bo'yicha (0503-satr x (3-ust. 01044-satri)/ 100)	05031	x	x	
valyuta tushumining to'liq kelib tushmaganligi munosabati bilan hisobga olinmaydigan QQS summasi (0503-satr – 05031-satr)	05032	x	x	
Hisobga olinmaydigan QQS summasi (020-satr – 050-satr = 0304-satr + 0404-satr + 05032-satr)	060			

Izoh:

* 3-ustun 0102, 0103, 01041, 0105-satrlarning qiymatlari ushbu satrlarning 4-ustundagi summasini 4-ustunning 0101-satridagi summaga nisbati orqali hisoblab chiqariladi.

** Tovarlar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli shaxs orqali eksportga realizatsiya qilingan hollarda, qo'shilgan qiymat solig'i vositachining, ishonchli shaxsning yoki soliq to'lovchining hisobvarag'iga kelib tushgan valyuta tushumi summasi ulushida hisobga olinadi.

Agar tovarlarni eksportga jo'natish va va jo'natilgan tovar uchun valyuta tushumi turli chet el valyutasida amalga oshirilsa, 01041 va 01043-satrlardagi barcha chet el valyutasi yukni jo'natish amalga oshirilgan oyning so'nggi kunidagi Markaziy bank belgilagan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblanadi.

Paxta tozalash zavodlari 4-ustunning 01041 va 01043-satrlarini, shuningdek 3-ustunning 01044-satrlarini to'ldirmaydi. 5-ustunning 05031-satrida 5-ustunning 0503-satridagi qiymatini takrorlaydilar.

Bunda paxta tolasini eksportga realizatsiya qilinganligini tasdiqlash maqsadida paxta tozalash zavodlari «Paxtasanoat» HAB naryadini va ushbu naryad asosida yozilgan hisob-varaqfakturani taqdim etadi.

*** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.03.2004 yildagi 141-sonli qaroriga asosan ichki bozorda "O'zbekengilsanoat" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi korxonalariga erkin muomaladagi valyutaga (qo'shilgan qiymat solig'ini nol darajali stavka bo'yicha hisoblagan holda) yarim tayyor to'qimachilik mahsulotlarini (kalava, gazmol, trikotaj polotno va paxtani yigirish chiqindilarini) realizatsiya qiluvchi korxonalar 0103-satr bo'yicha aylanmalarining xaridorlar – "O'zbekengilsanoat" DAK korxonalari tomonidan ushbu yarim tayyor mahsulotlardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kamida 80 foizi eksportga yo'naltirilganligi tasdiqlangan qismini ko'rsatadi.

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaqa

0	6
---	---

**Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha
tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan
hisobga olinadigan QQS hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Qiymat	QQS summasi
1	2	3	4
Eksport qilinishida nol stavka solinadigan, avvalgi soliq davrida ular bo'yicha to'lov (chet el valyutasida) kelib tushmagan tovarlar	010		x
Avvalgi soliq davrida eksportga jo'natilgan tovarlar uchun joriy soliq davrida xaqiqatda kelib tushgan tushum	020		x
Avvalgi soliq davrida eksport jo'natmalari uchun joriy soliq davrida xaqiqatda kelib tushgan to'lov hajmining salmog'i (020-satr / 010-satr x 100)	030		x
Avvalgi soliq davrida valyuta tushumi to'liq kelib tushmaganligi sababli hisobga olinmagan QQS summasi	040	x	
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (030-satr x 040-satr / 100)*	050	x	

*) Joriy soliq davrida valyuta tushumi to'liq kelib tushmagan eksport maxsulotlarini realizatsiya qilish bo'yicha oborotlar uchun hisobga olinishi lozim bo'lgan QQS summasi byudjetga bo'nak to'lovlari hisobining alohida hisobvarag'i – 4400 da yig'ib boriladi va valyuta tushumining tushib borishi bilan hisobga olinib boriladi.

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaq

0	7
---	---

**Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni)
realizatsiya qilish bo'yicha oborotlar**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jo'natmalar qiymati	QQS summasi
1	2	3	4
Tovarlarni, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlari, jami (0101 – 0108-satrlar yig'indisi)	010		
ulardan:			
soliq solinadigan bazaga kiritilgan aktsiz solig'i summasi	0101		
tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilishdan sof tushum («Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» - 2-sonli shaklning 010-satri)*	0102		
shu jumladan:			
QQSdan ozod qilinadiganlari (5-ilovaning 010-satri)	01021		X
nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan (6-ilovaning 010-satri)	01022		X
soliq solinadigan ustama summasi**	01023		
boshqa soliq solinadigan realizatsiya (0102-satr – 01021-satr – 01022-satr – 01023-satr)	01024		
tannarxidan past narxda realizatsiya qilingan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi va realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq (baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi, shuningdek nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tashqari)	0103		
tovarlarni import qilishda QQS to'lash maqsadida bojxona organlari tomonidan aniqlangan narx va import qilingan tovarlarning QQS kiritilmagan holda realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq summasi	0104		
asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish ob'ektlari realizatsiyasi (realizatsiya qilish narxi bilan ularning qoldiq (balans) qiymati o'rtasidagi QQSsiz ijobiy farq)	0105		
mol-mulkni moliya ijarasiga, shu jumladan lizingga topshirish (chiqib ketayotgan aktivning qiymati bilan QQSsiz balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi farq)	0106		

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jo'natmalar qiymati	QQS summasi
1	2	3	4
mol-mulkni operativ ijaraga berish	0107		
0102, 0103-0107-satrlarda (01081-satr + 01082-satr) ko'rsatilmagan boshqa realizatsiya qilish oborotlari	0108		
20 foizli stavka qo'llaniladigan:	01081		
	010811		
	010812		
01021-satrda ko'rsatilmagan soliq solinmaydigan:	01082		x
	010821		x
	010822		x

Izoh:

0104-satr import qilingan tovarlarni sotish bo'yicha savdo faoliyatini yurituvchi import bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Qiymatiga QQS summasini ham o'z ichiga oladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi bo'yicha oborotlar bo'yicha QQS summasi ($\text{oborot} \times 20 / 120$) formulasi orqali aniqlanadi.

* Don va donni dastlabki qayta ishlovdan keyingi qo'shimcha mahsulotlar va chiqindilarni realizatsiyasini amalga oshiruvchi «O'zdonmahsulot» DAK korxonalari uchun sof tushum soliq solinadigan oboroti ustama narx hisoblanuvchi tizim ichidagi korxonalarga davlat resursidagi donni sanoat yo'li bilan qayta ishlash uchun realizatsiya qilish bo'yicha oborotiga kamaytiriladi.

** 01023-satr soliq solinadigan oborot QQSni chegirib tashlagan holda ustama hisoblanuvchi «O'zdonmahsulot» DAK korxonalari tomonidan to'ldiriladi.

Rahbar

 (imzo)

Bosh buxgalter

 (imzo)

M.O'.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaq

0	9
---	---

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari

Realizatsiya bo'yicha oborotlar ro'yxati	Satr kodi	Soliq solinadigan baza	Imtiyozni qo'llash muddati
1	2	3	4
Soliq solinmaydigan tovarlarni (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oborotlari (020-satr + 030-satr)	010		X
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq – jami:	020		
shu jumladan			
	0201		
	0202		
	0203		
	0204		
	0205		
	0206		
	0207		
	0208		
Boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliq solinmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi bo'yicha oborotlar – jami:	030		
shu jumladan			
	0301		
	0302		
	0303		
	0304		
	0305		

Izoh: Qo'shimcha imtiyozlar (030 va keyingi satrlar) normativ-huquqiy hujjatning turi, raqami, sanasi, nomi va bandini ko'rsatgan holda to'ldiriladi.

Rahbar _____
(imzo)

Bosh buxgalter _____
(imzo)

M.O'.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaq

1	0
---	---

**Nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan
tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hisob-kitobi**

Soliq solinadigan ob'ektlar	Satr kodi	Soliq solinadigan baza
1	2	3
Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar realizatsiyasi – jami (020-satr + 030 satr + 040 satr + 050 satr + 060 satr + 070 satr):	010	
shu jumladan:		
Realizatsiya qilish paytida O'zR Makaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutadagi ekvivalentda tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish	020	
chet el diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi	030	
«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) realizatsiyasi	040	
xalqaro yo'nalishda yuk tashish bo'yicha xizmatlar realizatsiyasi, ulardan: (051-satr + 052-satr)	050	
xalqaro tranzit yuklarini tashish	051	
yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochmani xalqaro yo'nalishda tashish	052	
suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan, hususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan olayotgan shunday xizmatlar realizatsiyasi	060	
QQS bo'yicha nol darajali stavka qo'llanilishi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi – jami	070	
shu jumladan:		
	0701	
	0702	
	0703	

Izoh:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.03.2004 yildagi 141-sonli qaroriga asosan ichki bozorda «O'zbekengilsanoat» davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi korxonalariga erkin muomaladagi valyutaga (qo'shilgan qiymat solig'ini nol darajali stavka bo'yicha hisoblagan holda) yarim tayyor to'qimachilik mahsulotlarini (kalava, gazmol, trikotaj polotno va paxtani yigirish chiqindilarini) realizatsiya qiluvchi korxonalar 0103-satr bo'yicha aylanmalarining xaridorlar – «O'zbekengilsanoat» DAK korxonalari tomonidan ushbu yarim tayyor mahsulotlardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kamida 80 foizi eksportga yo'naltirilganligi tasdiqlangan qismini ko'rsatadi.

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--

varaq

1	1
---	---

**Xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-fakturalar
(hisobvaraq-faktura o'rnini bosadigan hujjatlar) reestri**

t/r	Etkazib beruvchi nomi	Etkazib beruvchi-ning STIRi	Hisobvaraq-faktura sanasi va rakami	Etkazib berish qiymati (QQS siz)	QQS summasi	undan, hisobga olinmaydigan, shu jumladan:							
						asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish ob'ektlari, shuningdek moliyaviy ijaraga, jumladan lizinga berish uchun olinganlar bo'yicha	qiymati, QQS bilan birga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish qiymatiga kiradigan ishlar, xizmatlar bo'yicha	Tekinga olingan tovarlar, ishlar, xizmatlar bo'yicha		Soliq kodeksining 147-moddasiga asosan chegirilmaydigan xara-jatlar maq-sadida olingan mol-mulk bo'yicha			
1	2	3	4	5	6	qiymat	QQS	qiymat	QQS	qiymat	QQS	qiymat	QQS
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Hisobot davri boshiga*													
	Jami:												
	QQS summasi hisobga olinishi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati (5-ustun – 7-ustun – 9-ustun – 11-ustun – 13-ustun)				x								
	Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi (6-ustun – 8-ustun – 10-ustun – 12-ustun – 14-ustun)				x								

Izoh: Reestr qo'shilgan qiymat solig'i ajratib ko'rsatilgan hisobvaraq-fakturalar (hisobvaraq-faktura o'rnini bosadigan hujjatlar) bo'yicha to'ldiriladi.

Import qilingan tovarlar bo'yicha, shuningdek realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi hisoblangan norezidentlardan olingan ishlar (xizmatlar) bo'yicha byudjetga haqiqatda to'langan QQS summasi ko'rsatiladi.

* Avvalgi hisobot davri uchun reestr (5 va 6-ustunlarining) yakuniy ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

Рахбар _____
(ИМЗО)

Бох бухгалтер _____
(ИМЗО)

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobiga 8-ilova

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaқ

1	2
---	---

**Realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)
bo'yicha hisobvaraқ-fakturalar (hisobvaraқ-faktura o'rnini bosadigan hujjatlar)
reestri**

t/r	Sotib oluvchining nomi	Sotib oluvchini ng STIRi	Hisobvaraқ- faktura sanasi va raqami	Sotish qiymati (QQSsiz)	QQS summasi	QQS bilan qiymati
1	2	3	4	5	6	7
	Jami					

Рахбар

(имзо)

Бош бухгалтер

(имзо)

М.Ў.